

OILADAGI SIBLING MUAMMASINING PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA O'RGANILISHI

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti
pedagogika va psixologiya fani o'qituvchisi
Norimbetova Nilufar Turg'un qizi

Аннотация

Статья посвящена проблемам сиблингового опыта развивающейся личности, который, с одной стороны, принципиально влияет на жизненный путь человека. Представлен анализ накопленного в мировой психологии материала, характеризующего особенности сиблинговых позиций с точки зрения их влияния на систему межличностных отношений в семье и взаимодействия сиблингов со своим окружением. Особое внимание уделено влиянию родительского отношения на сиблинговый опыт и сиблинговое отношение.

Annotatsiya

Ushbu maqola inson umr yo'lini belgilab beruvchi, shaxs taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi sibling munosabatlariga qaratilgan. Sibling tajriba, sibling pozitsiya, sibling munosabatlarning jahon psixologiyasida to'plangan ilmiy g'oyalarda oiladagi shaxslararo munosabatlarda sibling pozitsiyasining xususiyatlari va uni o'rab turgan muhit yordamida bola psixikasiga ta'sirini o'rganadi. Maqolada ota-ona va farzand munosabatlaridagi sibling tajriba, sibling munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: sibling, ota-farzand munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, sibling tajribasi, sibling pozitsiyasi, sibling munosabatlari, bolalarning psixologik rivojlanishi, oilada yashovchi aka-uka, opa-singillar orasida sibling munosabatlar.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida oilaviy munosabat omillarni o'rganishda juda muhim muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu muammoni o'rganish ta'lim-tarbiya jarayonida va shaxs ijtimoiylikda katta ahamiyatga egadir. Shuni ta'kidlash kerakki, qator tadqiqotlarda bolalar va o'spirinlarning shaxs taraqqiyoti ota-farzand munosabatlari doirasida o'rganilgan va sibling munosabatlariga kam e'tibor berilgan. Bolalar va o'spirinlar o'z navbatida oilaviy munosabatlar tizimining to'laqonli a'zosi bo'lib, oilada yashovchi aka-uka, opa-singil bu munosabatlarning subyekti hisoblanadi. Shu sababli oiladagi sibling munosabatlarni o'rganish ijtimoiy psixologik xususiyat sifatida va oilaviy vaziyatlarni tahlil qilishda, oilada bola shaxsi shakllanishida o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

Ushbu maqolada sibling muammosini o'rganishda asosiy tushunchalar bo'lgan sibling tajriba, sibling pozitsiya, sibling munosabatlar va ularning asosi bo'lgan oilada yashovchi ota-ona, aka-uka, opa-singil munosabatlarini o'rganishda bir tomondan bolaning psixik rivojlanishining ontogenetik taraqqiyoti barcha bosqichlarida katta ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'lishi va ikkinchi tomondan – psixologlar, amaliy psixologlar va maktab psixologlari tomonidan ushbu muammoga juda kam e'tibor qaratganligidir. Jahon psixologiyasida sibling muammosi bo'yicha to'plangan materiallar shuni ko'rsatadiki, sibling pozitsiyasi oilaviy munosabatlar tizimiga ta'sir qilib sibling munosabatlari o'rab turgan muhit bilan doimo hamkorlikda bo'ladi. Sibling tajribaning ota-ona

munosabatlarida katta ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratadi. Oilaviy munosabatlarning yaxlit tizimida sibling tizimi ham alohida o'ringa ega. Bunda oilaning sibling tizimida ota-onaning tarbiya jarayonida farzandlarga samarali yoki samarasiz ta'siri aniqlanadi.

Psixologik maslahat yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda sibling muammosining psixologik yo'nalishiga e'tibor qaratgan. Sibling tarixi, ya'ni individning rivojlanishining tarixi shuni ko'rsatadiki, bir oilada ulg'aygan aka-uka, opa-singillar bir-biriga unchalik o'xshamasligi mumkin, ularda qarindoshlik aloqalari kuzatilmagan, begona oilalarda ulg'ayayotgan farzandlarga o'xshashi mumkin. Psixik taraqqiyotning yosh rivojlanishida sibling munosabatlarning psixologik asoslarining mazmuniga e'tibor qaratsak unda asosan ikkita yo'nalish ko'zga tashlanadi:

1. Individning aka-uka, opa-singillari orasida tutgan o'rni uning bolalikdagi tajribasi keyinchalik uning shaxsiga va ulg'ayayotgan paytdagi munosabatlarida o'z izini qoldiradi. Bu o'spirinlik yoshida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli sibling munosabatlarning shaxs rivojlanishidagi ijtimoiy omil sifatidagi ta'siri psixolog tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortadi.

2. Oila tizimidagi sibling strukturasi o'spirinlik yoshida rivojlanishining asoslariga qo'shilgan bo'ladi. Shu sababli rivojlanayotgan shaxsning munosabatlar tizimida unga ta'sir etuvchi omillariga sibling pozitsiyasining ta'sirini ko'rib o'tish kerak bo'ladi. Sibling pozitsiyasi bu inglizcha termin bo'lib uning ma'nosi aka-uka, opa-singillarlarning ketma-ketlik tartibini bildiradi.

Birinchi yo'nalish bo'yicha psixologiya fanida olib borilgan tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak unda ilk tadqiqotni Z.Freyd amalga oshirganligining guvohi bo'lamiz. Keyinchalik uning ilmiy ko'zqarashini uning shogirdi A.Adler davom ettirdi.

Sibling pozitsiyasi bo'yicha uning oilaviy munosabatlardagi o'rni, shaxs tavsifnomasiga va individ munosabatlariga ta'sirini Avstraliyalik psixolog U.Toumen o'rgandi. U keng qamrovli tadqiqotlarda aka-uka, opa-singillarning o'xshash xususiyatlarini aniqladi. Muallif sibling pozitsiyasini tavsiflashda quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratdi: oiladagi bolalar soni, ularning jinsi, tug'ilish ketma-ketligi, tug'ilish orasidagi vaqt va boshqalar. Uning fikricha sibling pozitsiyasi quyidagicha:

- 1) Eng katta farzand: aka-ukalarning ukasi yoki opasi, opa-singillarning akasi yoki opasi;
- 2) Eng kichik farzand: aka-ukalarning ukasi yoki singlisi, opa-singillarning ukasi yoki singlisi;
- 3) O'rtanacha farzand;
- 4) Yagona farzand;
- 5) Egizaklar: ikkita, uchta, to'rtta va b.

Ushbu pozitsiyalar turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin, lekin katta farzand o'z ukalari va sigillari oldida katta aka yoki katta opa maqomiga ega bo'ladi. Agar farzandlar orasidagi yosh farqi 5-6 yildan oshiq bo'lsa bu bolalar ko'rsatkichlari bo'yicha yagona farzand maqomiga ega bo'ladi. Masalan, oiladagi o'g'il yoki qiz keyingi bolalardan 7 yosh katta bo'lsa u yagona farzand maqomiga ega bo'ladi, lekin uning ukalari va singillari uning xulqini o'zlariga namuna sifatida qabul qiladi va unga o'xshashga harakat qiladi.

U.Toumen fikricha sibling bolalarni bir-birlari bilan va o'z tengqurlari bilan yaqin munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Shu munosabat bilan farzandlarga siblinglararo bog'lanish ota-ona munosabatlaridan ko'ra o'zaro munosabatlar ahamiyatli bo'lib u "Gorizontal" munosabatlar tajribasini yuzaga keltiradi. Bolalar uchun ota-ona munosabatlari "Vertikal" munosabatlar hisoblanadi.

Oila psixologiyasi bo'yicha tadqiqotchi M.Bouyening fikricha katta insonlar orasidagi do'stlik, er-xotinlik munosabatlari, ota-ona rollarini bajarishi aksariyat hollarda bolalikda olingan sibling tajribasiga bog'liq bo'ladi. Shaxslararo munosabatlarda bolaning boshqalar ustidan hukmronlik

qilishi yoki o'zgalarni o'ziga tobe qilishi ham bolalikdagi aka-uka, opa-singillari bilan hamkorlik jarayonida shakllanadi. Oiladagi katta farzand o'zidan keyingilarni o'ziga bo'ysundiradi.

Oiladagi bolalikda shakllangan sibling munosabatlar keyinchalik katta hayotga qadam qo'yganda ham alohida ahamiyatga ega. Chet ellik tadqiqotchilarning fikricha bolalarning sibling tajribalari keyinchalik ularning qarama-qarshi jinslarga bo'lgan munosabatlarida ham namoyon bo'ladi. Agar sibling munosabatlar o'g'il va qizlar aralash oilada shakllangan bo'lsa unda qarama-qarshi jinslarga ijobiy munosabatlar yuzaga keladi. Agar farzand oilada qiz bola faqat o'g'il bolalar bilan sibling munosabatlarda bo'lgan bo'lsa u erkaklar bilan munosabatlarni tez va oson shakllantiradi, o'z turmush o'rtoqlari bilan samimiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Agar farzand oilada faqat qizlar bilan sibling munosabatlarda ulg'aygan bo'lsa u bo'lajak turmush o'rtog'i bilan samimiy munosabatlarni shakllantiradi va oilada bolalar tarbiyasida ham qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Faqat o'g'il bolalar bilan sibling munosabatlar shakllangan oilalarda esa turmush o'rtog'i bilan ma'lum qarama-qarshiliklar yuzaga keladi ayniqsa oilada qizlar tarbiyasida. Ushbu **ustanovkalar** hozirgi paytda chet elda ota-ona va farzand munosabatlarini tahlil qilish jarayonida psixologik maslahatda keng qo'llaniladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, oilaviy munosabatlarda ayniqsa, ota-ona va farzand munosabatlarida bola shaxsining ijtimoiy psixologik va shaxsiy psixologik rivojlanishida "sibling pozitsiya", "sibling tajriba", "sibling munosabatlar" asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Lekin yuqoridagi ko'rsatkichlarni aniqlash oilaviy munosabatlarda ancha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shunga qaramasdan ularni o'rganish oila psixologiyasi fanining muhim vazifasi hisoblanadi, chunki bola shaxsining benuqson va barkamol rivojlanishida, psixik jixatdan komillik darajasiga yetishishida sibling munosabatlarni tahlil qilish juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. A.Varga Sistemnaya semeynaya psixoterapiya: Kratkiy leksiionniy kurs. СПб., 2001.
2. Sidorenko Ye.V. Terapiya i trening po Alfredu Adleru. СПб., 2000.
3. Lukyanenko N.B., Alikin I.A. Teoriya semeynix sistem M.Bouyena. Krasnoyarsk, 2002.
4. Kozlova L.E., Lukyanenko N.V. Vliyaniye siblingovoy pozitsii detstva na xarakteristiki semeynoy jizni vzroslogo cheloveka // Shkola i lichnost. Krasnoyarsk, 2003.
5. E.N.Sattarov, T.B.Norimbetov. "Oilada ota-ona va farzand munosabatlarining etnopsixologik xususiyatlari" UzMU ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 1-kitob, 345 bet.